

GANIYEV Avazbek

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom tarixi va manbashubosligi IRCICA kafedrası
dotsenti, DSc*

AKOBIROVA Madina

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti*

IMOM RABBONIY “MAKTUBOT” ASARINING TASAVVUF TARIXIDAGI O'RNI

THE ROLE OF WORK “MAKTUBAT” BY IMAM RABBANI IN THE HISTORY OF SUFISM

РОЛЬ СОЧИНЕНИЯ «МАКТУБАТ» ИМАМА РАББАНИ В ИСТОРИИ СУФИЗМА

Annotatsiya. Mazkur maqolada Imom Rabboniy Ahmad Sirhindiy (1564–1624) tomonidan yozilgan Maktubot asarining tasavvuf tarixi, isloh g'oyalari va islomiy-ma'naviy tafakkur rivojidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Maktubotning mazmuniy qatlamlari, xususan, mujaddidlik konsepsiyasi, shariat va tariqat uyg'unligi, “vahdati shuhud” doktrinasi hamda sufiy amaliyotga kiritilgan nazariy yangilanishlar ilmiy manbalar asosida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Imom Rabboniy, Ahmad Sirhindiy, Maktubot, Mujaddidiya, Naqshbandiya, tasavvuf tarixi, vahdati shuhud, isloh, tariqat, shariat, islom falsafasi, ruhiy-ma'naviy yangilanish.

Abstract. This article analyzes the role of Maktubat, written by Imam Rabbani Ahmad Sirhindiy (1564–1624), in the history of Sufism, reform ideas, and the development of Islamic-spiritual thought. Within the framework of the research, the content layers of Maktubat, in particular, the concept of mujaddidism, the harmony of Sharia and tariqa, the doctrine of “wahdati shuhud” and the theoretical innovations introduced into Sufi practice, were studied based on scientific sources.

Keywords: Imam Rabbani, Ahmad Sirhindiy, Maktubat, Mujaddidiya, Naqshbandiyya, history of Sufism, unity of the witness, reform, tariqat, sharia, Islamic philosophy, spiritual and moral renewal.

Аннотация. В данной статье анализируется роль сочинения «Мактубот» Имама Раббани Ахмада Сирхинди (1564–1624) в истории суфизма, развитии

реформаторских идей и исламской духовной мысли. В рамках исследования на основе первоисточников изучены ключевые содержательные пласты труда: концепция муджаддидизма, вопрос гармонии шариата и тариката, доктрина вахдат аш-шухуд, а также теоретические инновации, внесённые автором в суфийскую практику.

Ключевые слова: Имам Раббани, Ахмад Сирхинди, Мактубат, Муджаддидия, Накибандийя, история суфизма, единство свидетельства, реформа, тарикат, шариат, исламская философия, духовное и нравственное обновление.

KIRISH

XVI va XVII asrlar musulmon olamida, xususan, Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarida tasavvufning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotdagi mavqei sezilarli darajada qayta shakllangan davr sifatida baholanadi. Ana shu murakkab jarayonlar ichida Naqshbandiya tariqatining yangi yo'nalishi bo'lmish Naqshbandiya-mujaddidiya maktabi shakllandi. Mazkur yangilanish harakatining markazida ism-sharifi islom tafakkuri tarixida alohida o'rin egallagan Imom Rabboniy Ahmad Faruqiy Sirhindiy (1564–1624) turadi [8, 16]. Uning mashhur “Maktubot” asari o'z davri tasavvufiy amaliyotiga qat'iy tartib, ma'naviy-intellektual barqarorlik va shariat asosidagi isloh mezonlarini olib kirgan fundamental manba sifatida e'tirof etilgan.

“Maktubot” tariqatning konseptual yangilanishi, tasavvufni bid'atlardan poklash, Qur'on va Sunnatga tayanilgan ruhiy tarbiya asoslarini tiklash hamda “shariat-tariqat-haqiqat” o'rtasidagi muvozanatni qayta ta'sis etishga qaratilgan keng qamrovli fikrlar majmuasidir. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, Sirhindiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar keyingi davrlarda Hindiston, Afg'oniston, Turkiya, Markaziy Osiyo hamda Sharqning boshqa musulmon hududlarida Naqshbandiya tariqatining yangi mazmun bilan boyishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [7, 31]. Shunga qaramay, “Maktubot”ning zamonaviy tasavvufshunoslikdagi ilmiy o'rni yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Akademik adabiyotlarda ko'proq tariqatning umumiy tarixi yoritilgan bo'lib, asarning ichki konsepsiyasi, ruhiy tarbiya metodologiyasi, mujaddidlik nazariyasi hamda Imom Rabboniyning shariat ta'limotiga asoslangan islomiy qarashlari hozirgacha to'liq

tahlil qilinmagan. Ayniqsa, maktublarning kompozitsiyasi, ularning didaktik tuzilishi, normativ tasavvuf tushunchalarini qayta talqin etish mexanizmlari ham ilmiy jihatdan yetarli darajada baholanmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Imom Rabboniy Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asarini tasavvuf tarixining yirik bosqichlaridan biri sifatida ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish, asarda ilgari surilgan aqidaviy, ruhiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-diniy tamoyillarni tizimli ravishda tahlil qilish, hamda mujaddidiylik maktabining shakllanishida ushbu asarning oʻrni va taʼsirini ilmiy manbalar asosida yoritishdan iboratdir.

ASOSIY QISM

Mazkur tadqiqotda Imom Rabboniy Ahmad Faruqiy Sirhindiyning “Maktubot” asari tasavvuf tarixidagi oʻrni va “mujaddidiylik” maktabining shakllanishi jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishga yoʻnaltirilgan bir qator nazariy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Yondashuvlarning barchasi asarning matn tuzilishi, konseptual qatlamlari hamda tarixiy-sotsial muhitiga chuqur kirish imkonini beradi.

Manbashunoslik tahlili: Tadqiqotning markazida “Maktubot”ning qoʻlyozma va bosma nashrlari, ular ustida yaratilgan sharhlar, tarjimalar va mujaddidiylik tarixiga oid qoʻshimcha manbalar turadi [1, 23]. Maktublarning turli nashrlaridagi matn farqlari, istilohiy oʻzgarishlari, ayrim maktublarning tarkibiy tafovutlari solishtirildi. Shuningdek, Sirhindiya tegishli boshqa risolalar bilan bir qatorda, matnlarning tarixiy qatlamiga – zamoniy siyosiy ishoralar, fatvo mazmunlari, shaxsiy maktublarning kontekstiga alohida eʼtibor qaratildi [6, 76]. Bu yondashuv manba muhitini oydinlashtirishga xizmat qildi.

Tasavvufshunoslik tahlili: Tadqiqotda tasavvufshunoslikning klassik tahlil tamoyillaridan foydalanildi. Tasavvufiy hol va maqom tizimi, riyozat, suhbat, ixlos, huzur kabi naqshbandiyaga xos yoʻnalishlar Imom Rabboniy talqinida qayta koʻrib chiqildi. Shuningdek, “vahdat al-vujud” va “vahdat ash-shuhud” oʻrtasidagi farqning Sirhindi tomonidan yangicha izohlanishi, suluk tizimidagi “robita”, “xilvat dar anjuman” kabi tamoyillar ilmiy-falsafiy kontekstda tahlil qilindi.

Imom Rabboniy oʻz faoliyatini islom tarixidagi “mujaddidlik” anʼanasining davomchisi

sifatida koʻradi. Uning taʼlimotida tasfiya (ruhiy poklanish), ihyo (sunnatni jonlantirish) va isloh (diniy-amaliy hayotga tartib kiritish) tushunchalari asosiy oʻrin tutadi. Sirhindi nazarida tasavvufning haqiqiy mazmuni Qurʼon va Sunnatga asoslanishi, amaliyotlar shariat mezonidan chetga chiqmasligi, sufiylikdagi ortiqcha taʼbirlar va bidʼat koʻrinishlari poklanishi zarur. Bu yoʻnalish tasavvufni normativ asosga qaytarish harakati sifatida qadrlanadi.

“Maktubot”ning markaziy gʻoyalardan biri – shariatning tasavvufiy maqomlar, kashf va ruhiy holatlardan ustunligi haqidagi taʼlimotdir. Imom Rabboniy ruhiy tajribalarni shariat mezonida baholashni zaruriy shart deb biladi. Uning fikricha, tasavvufning maqsadi mastlik yoki ruhiy hol kechinmalar emas, balki paygʻambarlardek odob bilan yashash, sunnatni hayotiy tamoyilga aylantirishdir. Bu yondashuv islom maʼnaviyati tarixida muhim burilish sifatida talqin qilinadi.

Imom Rabboniy tasavvuf metafizikasida muhim oʻrin tutuvchi “vahdat al-vujud” konsepsiyasini tanqid qilib, “vahdat as-shuhud” nazariyasini ilgari suradi. Unga koʻra, mavjudot Allohning zoti bilan ayniy emas; insonning ruhiy yetukligi mavjudotning yagona vujudga aylanishini idrok qilishda emas, balki Allohning qudrati va yaratgan olamini hokimlik, tartib va hikmat bilan kuzatish, yaʼni “shuhud” orqali anglashdadir [1, 142]. Mazkur yondashuv mujaddidiya maktabining aqidaviy asosini tashkil etdi.

“Maktubot” asarining muhim qismini aqida masalalari tashkil etadi. Unda tavhid tushunchasining sof talqini, Alloh sifatlarining ahli sunna manhajiga mos izohlari, ilohiy ilm, qadar, nuroniy mavjudot va metafizik masalalarga oid qarashlar mufassal bayon etiladi [3, 112]. Shuningdek, Imom Rabboniy tasavvufdagi haddan tashqari metaforik talqinlarni va xurofotga moyil qarashlarni tanqid qiladi, eʼtiqodning qatʼiy meʼyorlarini belgilab beradi.

Maktublarda tariqatning amaliy jihatlari – zikr, robita, suhbat va murshid-murid munosabatining adabiy meʼyorlari keng izohlanadi. U xususan, “zikri xafiy” anʼanasining naqshbandiyadagi markaziy oʻrnini, robita orqali ruhiy tarbiyaning chuqurlashishini, suhbatning maʼnaviy yetuklikka taʼsirini batafsil sharhlaydi. Bu jihatlar mujaddidiya tariqatining amaliy tizimini shakllantirgan.

“Maktubot” faqat ruhiy tarbiya manbasi emas, balki diniy-ijtimoiy fikr tarixining ham muhim

manbaidir. Asarda hukmdorlarning mas'uliyati, adolat tamoyili, din va davlat munosabatlari, jamiyatdagi bid'at va siyosiy inqirozlarning oqibatlari haqida dolzarb mulohazalar bildiriladi. Imom Rabboniy Mog'ul imperiyasi davrida yuzaga kelgan g'oyaviy inqirozlarga baho berib, isloh zarurligini ta'kidlagan.

Asarda nafsni poklash, riyozat, ixlos, sabr, shukr, tavakkul kabi axloqiy maqomlarning mohiyati keng yoritilgan. Ma'naviy kamolot bosqichlari, ruhiy tarbiya metodlari va odobi tasavvufiy etika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bu qism "Maktubot"ni axloqiy-tarbiyaviy manba sifatida alohida ahamiyatli qiladi.

Imom Rabboniy Naqshbandiya tariqatini shariat asosidagi tasavvuf tushunchasi bilan mustahkamladi. U tariqat amaliyotini tartibga soldi, ortiqcha bid'at unsurlaridan tozaladi va ruhiy tarbiyaning intizomli modelini taklif etdi. Natijada tariqatning yangi bosqichi mujaddidiya maktabi shakllandi.

Sirhindiyning o'g'illari va shogirdlari uning g'oyalarini Hindiston, Afg'oniston, Movarounnahr, Turkiya va boshqa yirik musulmon hududlariga yoydilar. XVII va XVIII asrlarda mujaddidiya Hindistonning eng keng tarqalgan tasavvufiy yo'nalishlaridan biriga aylandi va katta ijtimoiy-madaniy ta'sir ko'rsatdi.

Imom Rabboniy tomonidan ilgari surilgan "Tariqatul-Muhammadiya" talqini sunnatga ergashishni, qalbni ixlos va tartib bilan tarbiyalashni, fiqh, aqida va axloqni yagona ma'naviy tizim sifatida ko'rishni nazarda tutadi. Bu tamoyillar mujaddidiyaning ichki mafkuraviy asosini mustahkamladi. Markaziy Osiyoda mujaddidiya qarashlari avvaldan mavjud bo'lgan tasavvuf maktabi bilan fikriy jihatdan uzviy bog'liq bo'ldi. Xoja Ubaydulloh Ahrorning shariatga tayanadigan tasavvuf konsepsiyasi Sirhindiyning "yangilanish ruhiga" yaqin edi.

Keyingi asrlarda mujaddidiya silsilasi Buxoro, Qo'qon va Xiva diniy muhitida keng tarqaldi. Amirlik va xonlik davridagi madrasalar, masjidlar va tariqat doiralarida mujaddidiya silsilalari faoliyat yuritganiga oid tarixiy manbalar mavjud.

XX asr boshidagi jadid ziyolilari Imom Rabboniy g'oyalarini musulmon jamiyatida ma'naviy yangilanishning muhim bosqichi sifatida talqin qilgan. Ular mujaddidlikni islomda yangilanish g'oyasi, ma'rifat orqali jamiyatni isloh qilish tamoyili bilan bog'lashgan.

XULOSA

Imom Rabboniy Ahmad Faruqiy Sirhindiy tomonidan yozilgan "Maktubot" asari tasavvuf tarixida alohida mavqega ega bo'lgan, XVI va XVII asrlarda yuz bergan intellektual va ma'naviy o'zgarishlarni o'zida mujassamlashtirgan yirik ilmiy manba sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, bu asar shaxsiy-irshodiy maktublar to'plami bo'lishi bilan birga, tasavvufning nazariy asoslari, amaliy suluk tizimi, aqidaviy qarashlari hamda ijtimoiy-ma'naviy masalalarini uyg'un va muvozanatli tarzda yoritib beruvchi mukammal konseptual majmuadir.

"Maktubot" avvalo "mujaddidlik" konsepsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Imom Rabboniy ilgari surgan isloh, ihyo va tasfiya g'oyalari tasavvufni Qur'on va Sunnat asosiga qaytarish, sufiylik amaliyotini shariat mezoniga mos holda tartibga solish, ruhiy hayotni bid'atlardan poklash zaruratini ko'rsatadi. Shu ma'noda, "Maktubot" Naqshbandiya-mujaddidiya maktabining shakllanishi va keyingi hududlarga yoyilishida mustahkam g'oyaviy poydevor vazifasini bajargan. Asarda shariatning tasavvufdagi ustuvor o'rni alohida ta'kidlanadi. Imom Rabboniy shariatni haqiqatning asosiy mezon sifatida ko'rib, barcha ruhiy holatlar, kashf va ilhomlar shariatga mutlaqo bo'ysunishi lozimligini uqtiradi. Bu yondashuv tasavvufni ortiqcha metafizik talqinlardan, monistik ifodalardan chetlashtirib, uni hayotiy-amaliy yo'nalishga yo'naltiradi va tasavvuf tarixida normativlikni tiklashga xizmat qiladi.

"Vahdat al-vujud" va "vahdat ash-shuhud" masalasidagi Sirhindiy pozitsiyasi tasavvuf metafizikasining qayta talqin etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. U vahdat ash-shuhud konsepsiyasi orqali Allohning zoti bilan mavjudot o'rtasidagi ayniyatni rad etib, inson ruhiy idrokining o'rni va chegaralarini aniq belgilaydi, aqidaviy mezonlarni mustahkamlaydi. Natijada tasavvuf falsafasi kalom va fiqh bilan muvozanatlashtirilgan holda yangicha izohlanadi.

"Maktubot" tasavvufning amaliy sohasi uchun ham zarur bo'lgan suluk mezonlarini to'liq aks ettiradi. Zikri xafiy, robita, suhbat, murshid va murid o'rtasidagi odob, nafs tarbiyasi, riyozat kabi jihatlar izchil bayon qilinib, ruhiy tarbiyaning intizomli modelini shakllantiradi. Sirhindiy suluki

Naqshbandiya-mujaddidiya an'anasida markaziy o'rin egallab, bugungi kunda ham ko'plab tasavvuf maktablarida metodik asos sifatida o'rganilib kelmoqda. Bundan tashqari asarda ilgari surilgan ijtimoiy, siyosiy va axloqiy qarashlar Imom Rabboniy merosining yanada keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. U hukmdorning mas'uliyati, adolat tamoyillari, jamiyatda diniy qadriyatlarning ustuvorligi, ma'naviy tarbiyaning davlat va jamiyat barqarorligiga ta'siri haqida so'z yuritib, tasavvufning jamiyatdan uzilgan emas, balki u bilan uzviy aloqada bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu jihat ijtimoiy faollik an'alarini davom ettiradi va Markaziy Osiyo, Hindiston, Afg'oniston hamda turkiy hududlardagi tasavvufiy harakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari "Maktubot"ning XVIII va XIX asrlarda Markaziy Osiyo ilmiy-ma'rifiy hayotida ham muhim manba sifatida o'qilganini ko'rsatadi. Buxoro, Qo'qon, Xiva ulamolari mujaddidiya g'oyalarini fiqh, tasavvuf va axloqiy tarbiya amaliyotiga singdirganlari tarixiy manbalar bilan tasdiqlanadi. XX asr boshidagi jadid ziyolilarining Sirhindiy merosini "islomdagi yangilanish tamoyillari" ning muhim tarixiy manbalaridan biri sifatida qayta baholashi ham "Maktubot"ning intellektual ta'sir doirasi kengligini ko'rsatadi.

Imom Rabboniy "Maktubot" asari tasavvufni shariat asosiga qaytarish, ruhiy tarbiya metodologiyasini takomillashtirish, jamiyatning ma'naviy yangilanishiga ta'sir ko'rsatish hamda musulmon dunyosida intellektual uyg'onish jarayonini davom ettirishda chuqur iz qoldirgan. Asarning ilmiy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u bugungi kunda ham islomshunoslik, tasavvufshunoslik, ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar va musulmon ma'naviy merosini o'rganishda muhim metodologik manba bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmad Sirhindiy. Maktubat-i Imam Rabbani (3 jild). – Karachi: Darul-Isha'at, 2003.
2. Ahmad Sirhindiy. Mabda' wa Ma'ad. – Lahore: Majlis-e-Nashriyat, 1980.
3. Schimmel A. Islamic Mysticism. – Leiden: Brill, 1975. – P. 112–138.
4. Schimmel A. Islam in the Indian Subcontinent. – Leiden: Brill, 1980.
5. Ter Haar J. G. J. A Sufi Saint from India: Ahmad Sirhindi. – Leiden: Brill, 1992.
6. Ter Haar J. G. J. Islam and Renewal: Reform in the Muslim World. – Leiden: Brill, 2004.
7. Friedmann Y. Shaykh Ahmad Sirhindi: An Outline of His Thought. – Montreal: McGill University Press, 1971.
8. Algar H. The Naqshbandi Order: A Preliminary Survey. – Berkeley: University of California Press, 1967.